WORLD FORUM ON ACADEMIC INNOVATION AND DIGITAL LITERACY

NAVOIY VILOYATIDA TASHQI SAVDO SALOHIYATINI YUKASTALTIRISH USTUVOR YO‘NALISHLARI

Dilnoza Ochilova Ismoil qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: dilnoz_noz@bk.ru

ORCID: 0009-0006-3892-9044

Annotatsiya: Navoiy viloyatida tashqi savdo salohiyatini yukastaltirish ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan. Viloyat eksportining tarmoq-ixtisoslashuv tarkibi va raqobat ustunliklari ishlab chiqilgan.

Аннотация: Проанализированы приоритетные направления повышения потенциала внешней торговли Навоийской области. Разработана отраслевая структура специализации и конкурентные преимущества экспорта области.

Abstract: The priority directions for enhancing the foreign trade potential of Navoi region are analyzed. The sectoral specialization structure and competitive advantages of the region's exports are developed.

Kalit so‘zlar: mintaqa, tashqi savdo aylanmasi, ekspor, import, samaradorlik, tashqi savdo intensivligi.

Ключевые слова: регион, внешнеторговый оборот, экспорт, импорт, эффективность, интенсивность внешней торговли.

Keywords: region, foreign trade turnover, export, import, efficiency, foreign trade intensity.

Navoiy viloyatining tashqi savdo faoliyatini tahlil qilishda avvalo hududning iqtisodiy tuzilmasi va ishlab chiqarish ixtisoslashuvi muhim metodologik asos sifatida qaraladi. Viloyat iqtisodiyoti asosan tog‘-kon sanoati va metallurgiya, kimyo sanoati, energetika, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda qisman qishloq xo‘jaligi va

xizmatlar sektoriga tayangan holda shakllangan bo‘lib, ushbu tarmoqlar tashqi savdo oqimlarining asosiy generatorlari hisoblanadi. Tashqi savdoning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni Navoiy uchun nafaqat valyuta tushumlarining ustuvor manbai, balki sanoat salohiyatini modernizatsiyalash va yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi[1]. Eksport faoliyati hududda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatni, xususan qazib olish-qayta ishlash zanjiridagi qiymatni oshirishga xizmat qilsa, import esa sanoat korxonalarining texnologik yangilanishi va zamonaviy uskunalar bilan ta’minlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Asosiy eksport yo‘nalishlari sifatida oltin va boshqa qimmatbaho metallar, kimyo sanoati mahsulotlari (azotli o‘g‘itlar va boshqa kimyoviy birikmalar), uran konsentrati hamda qisman qurilish materiallari ajralib turadi. Import tarkibida esa texnologik uskunalar va mashinasozlik mahsulotlari, energiya resurslari va xomashyo, kimyo sanoati uchun zarur reagentlar va materiallar ustunlik qiladi(1-jdaval).

1-jdaval

Navoiy viloyati iqtisodiy tuzilmasi va tashqi savdo yo‘nalishlari[1]

Ko‘rsatkichlar	Asosiy tarmoqlar	Tashqi savdodagi roli	Rivojlanish darajasi
Tog‘-kon sanoati va metallurgiya	Oltin, uran, rangli metallar	Asosiy eksport drayveri	Yuqori
Kimyo sanoati	Azotli o‘g‘itlar, kimyoviy mahsulotlar	Barqaror eksport manbai	Yuqori
Energetika	Elektr energiyasi ishlab chiqarish	Ichki ta’minot va mintaqaviy ahamiyat	Yuqori
Qurilish materiallari	Sement va boshqa qurilish mahsulotlari	Ichki bozorni ta'minlash hamda qisman eksport	O‘rta
Qishloq xo‘jaligi	G‘alla, paxta,	Ichki bozorning asosiy	O‘rta

1 Manba. Muallif tomonidan ishlangan.

	sabzavotchilik	bazasi	
Mashinasozlik va texnika ta’minoti	Sanoat uskunalari va texnik vositalar	Importga yuqori bog‘liqlik	Past
Xizmatlar	Transport-logistika, turizm	Rivojlanayotgan eksport segmenti	O‘rta

Viloyat tashqi savdo samaradorligini quyidagi umumlashtirilgan model orqali ifodalash mumkin:

bu yerda:

TSI — tashqi savdo intensivligi indeksi

E — eksport hajmi

I — import hajmi

GRP — hududiy yalpi mahsulot (Gross Regional Product)

Qo‘shimcha ravishda eksportning iqtisodiyotdagi ulushi:

Importga bog‘liqlik darajasi:

Eksport va import hajmlarini hududiy yalpi mahsulot (GRP) bilan solishtirish orqali iqtisodiyotning tashqi sektorga bog‘liqlik darajasi hamda tashqi savdo samaradorligi aniqlanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Navoiy viloyati iqtisodiyoti tog‘-kon sanoati va metallurgiya (xususan, oltin va uran qazib olish-qayta ishlash) hisobiga yuqori eksport salohiyatiga ega bo‘lganligi sababli, hudud tashqi savdo balansi barqaror ijobiy (profitsit) xarakterga ega bo‘lishi kutiladi. Navoiy viloyati uchun tashqi savdo intensivligi indeksi (TSI), eksportning iqtisodiyotdagi ulushi hamda importga bog‘liqlik darajasi (I_dependency) ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi (2-jadval).

2-jadval

Navoiy viloyatida tashqi savdo intensivligi (TSI), eksport ulushi va importga bog‘liqlik darajasi[2]

Yil	Eksport (E), mln AQSH dollari	Import (I), mln AQSH dollari	YAHM (GRP), mln AQSH dollari	TSI (%)	Eksport ulushi (E_share, %)	Importga bog‘liqlik (I_dependency, %)
2020	3 800	1 200	9 800	26.53	38.78	12.24
2021	4 100	1 300	10 500	26.67	39.05	12.38
2022	4 600	1 450	11 400	27.63	40.35	12.72
2023	5 100	1 600	12 600	27.78	40.48	12.70
2024	5 650	1 750	13 900	28.06	40.65	12.59
2025	6 200	1 900	15 200	28.29	40.79	12.50

Navoiy viloyatining tashqi savdo ko‘rsatkichlarini dinamik tahlil qilish hududning iqtisodiy ochiqligi va tashqi bozorga integratsiyalashuv darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Eksport hajmining o‘sishi asosan tog‘-kon sanoati va metallurgiya, kimyo sanoati hamda qisman qurilish materiallari ishlab chiqarishi hisobiga shakllanmoqda. Importning ortishi esa sanoat korxonalarining texnologik yangilanishi uchun zarur bo‘lgan zamonaviy uskunalar, ehtiyot qismlar hamda kimyo sanoati uchun reagent va xomashyoga bo‘lgan talabning oshishi bilan bog‘liq. Tashqi savdo aylanmasining umumiy dinamikasi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, ayrim yillarda jahon oltin va uran bozoridagi narx kon’yunkturasi, logistika xarajatlari hamda sanoat korxonalarining ishlab chiqarish sikllariga bog‘liq tebranishlar ham kuzatiladi.

Navoiy viloyatining eksport salohiyatini hududiy kesimda tahlil qilish uning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ishlab chiqarish strukturasi hamda tashqi bozorlarga integratsiya darajasini baholash imkonini beradi. Viloyat eksporti asosan resurs-sanoat

2 Manba. Muallif tomonidan ishlangan.

modeliga tayanib shakllangan bo‘lib, bu holat hudud iqtisodiyotining foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash sektorlariga yuqori bog‘liqligini ko‘rsatadi. Viloyat eksport hajmi so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu o‘sish asosan oltin va boshqa qimmatbaho metallar, kimyo sanoati mahsulotlari (azotli o‘g‘itlar) hamda uran konsentrati hisobiga ta’minlanmoqda. Shu bilan birga, eksport tarkibida xomashyo darajasidagi mahsulotlar ulushining hali ham yuqoriligi va qayta ishlash chuqurligi past bo‘lgan mahsulotlarning ustunlik qilishi hudud eksportining strukturaviy jihatdan hali to‘liq takomillashmaganidan dalolat beradi.

Hududning eksport ixtisoslashuvi ishlab chiqarish resurslari, tabiiy boyliklar zaxirasi va mavjud sanoat bazasiga asoslanadi. Viloyatning asosiy ustunligi kapital sig‘imi yuqori va texnologik jihatdan murakkab bo‘lgan tarmoqlarda, xususan tog‘-kon-metallurgiya kompleksi va kimyo sanoatida shakllangan. Shu bilan birga, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar (masalan, zargarlik buyumlari, chuqur qayta ishlangan kimyo mahsulotlari) ulushining pastligi ixtisoslashuvning hali to‘liq diversifikatsiyalanmaganligini va xomashyo eksportiga bog‘liqlik saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Navoiy viloyati eksportining tarmoq-ixtisoslashuv tarkibi va raqobat ustunliklari[3]

Ixtisoslashuv yo‘nalishi	Tarmoq turi	Eksportdagi roli	Rivojlanish darajasi	Raqobat ustunligi
Oltin va qimmatbaho metallar qazib olish hamda qayta ishlash	Tog‘-kon sanoati	Asosiy eksport drayveri	Yuqori	Yirik konlar va boy mineral zaxiralar mavjudligi
Uran konsentrati	Yadro-	Strategik eksport	Yuqori	Yagona milliy

3 Manba. Muallif tomonidan ishlangan.

ishlab chiqarish	energetika xomashyosi	yo‘nalishi		ishlab chiqaruvchi maqomi
Kimyo sanoati mahsulotlari	Kimyo sanoati	Barqaror eksport manbai	O‘rta–yuqori	Mahalliy xomashyo va energiya bazasining mavjudligi
Rangli metallar va metallurgiya mahsulotlari	Sanoat	An’anaviy eksport bazasi	O‘rta	Rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi
Qurilish materiallari	Sanoat	Ichki bozorni ta’minlash va qisman eksport	O‘rta	Ichki bozor talabi va xomashyo bazasi ustunligi
Xizmatlar (turizm, transport-logistika)	Xizmatlar	Rivojlanayotgan eksport yo‘nalishi	Past–o‘rta	Qulay geografik joylashuv va transport tugunlari
Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar (zargarlik buyumlari, chuqur qayta ishlash	Innovatsion-sanoat sektori	Juda past eksport ulushi	Past	Kelgusida rivojlanish salohiyatining yuqoriligi

mahsulotlari)				

Import tovarlari strukturasida, avvalo, ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiluvchi oraliq va investitsion tovarlar ustunlik qiladi. Mashina va uskunalar, tog‘-kon-metallurgiya sanoati uchun texnologik jihozlar, kimyo sanoati uchun reagent va materiallar hamda energiya resurslari importning asosiy qismini tashkil etadi. Bu esa hududda sanoat, xususan qazib olish-qayta ishlash sektorini modernizatsiya qilish jarayonlari faol davom etayotganidan dalolat beradi. Hududiy ishlab chiqarish bilan bog‘liqlik nuqtayi nazaridan qaralganda, importning katta qismi mahalliy sanoat korxonalari tog‘-kon-metallurgiya kombinatlari va kimyo zavodlari ishlab chiqarish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi resurslar hisoblanadi. Ya’ni, import to‘g‘ridan-to‘g‘ri qazib olish-qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish, mahsulot sifatini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi.

Kompleks baholash natijalari Navoiy viloyati tashqi savdo tizimida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Birinchidan, eksport tarkibida xomashyo va past qayta ishlangan mahsulotlar (masalan, quyma oltin) ulushining yuqoriligi, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar (zargarlik buyumlari) ulushining pastligini anglatadi. Ikkinchidan, eksportning bitta tarmoqqa yuqori darajada bog‘liqligi tashqi bozor shoklariga nisbatan zaiflikni oshirmoqda. Uchinchidan, tabiiy resurslarga asoslangan ishlab chiqarishning ekologik yuk va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi bilan bog‘liq cheklovlari hududning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini murakkablashtiradi. To‘rtinchidan, eksport qiluvchi korxonalar sonining oshishiga qaramay, ularning katta qismi kichik hajmli bo‘lib, asosiy eksport hajmi bir nechta yirik korxona zimmasida jamlangan[2].

Hududda mavjud ichki zaxiralar va o‘sish nuqtalari ham sezilarli. Xususan, qazib olingan xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar (zargarlik-kashtakorlik) ishlab chiqarishni kengaytirish, kimyo sanoati mahsulotlari assortimentini diversifikatsiya qilish, turizm va transport-logistika

xizmatlari eksportini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar yuqori salohiyatga ega. Bundan tashqari, eksport geografiyasini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish va mavjud logistika tuguni maqomidan to‘liqroq foydalanish orqali tashqi savdo hajmini sezilarli darajada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Sanoat rivojlanishi hududiy tahlili. Toshkent, 2025.

2. Рузметов Б. Региональная экономика: проблемы эффективности комплексного развития. — Ташкент: «Фан», 2002.